

TALABALARDA LIDERLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR

Tajimuratova Shaxnoza Sag'inbaevna,

Berdaq nomidagi Qaraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18932412>

***Anotatsiya.** Bu maqolada talabalarda liderlik kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik shart-sharoitlar, liderlik kompetensiyasining mazmuni va tarkibiy tuzilmasi haqida sóz etilgan*

***Kalit so'zlar:** talaba, kompetensiya, rivojlantirish, pedagogika, madaniyat va san'at.*

***Abstract.** This article discusses the pedagogical conditions for developing leadership competence in students, the content and structural structure of leadership competence.*

***Keywords:** student, competence, development, pedagogy, culture and art.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются педагогические условия развития лидерских компетенций у студентов, а также содержание и структурная структура лидерских компетенций.*

***Ключевые слова:** студент, компетентность, развитие, педагогика, культура и искусство.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan davrda jamiyatning har bir sohasida yetakchi, tashabbuskor va mas'uliyatli kadrlarni tayyorlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalar kelajakda nafaqat o'z kasbining mutaxassisi, balki jamoani boshqara oladigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan va ijtimoiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsata oladigan shaxs sifatida shakllanishi zarur. Shu nuqtai nazardan qaraganda, talabalarda liderlik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Liderlik kompetensiyasi – bu faqatgina boshqaruv qobiliyati emas, balki muloqot madaniyati, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal eta olish, jamoada ishlash, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va boshqalarni ruhlantira bilish kabi ko'nikmalar majmuasidir. Bunday kompetensiyalar tabiiy ravishda shakllanib qolmaydi, balki maqsadli tashkil etilgan pedagogik jarayon, qulay ta'lim muhiti hamda samarali metodlar asosida rivojlantiriladi. Demak, liderlikni rivojlantirishda pedagogik shart-sharoitlarning o'rni beqiyosdir. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga undash, innovatsion va interaktiv metodlardan foydalanish, amaliy mashg'ulotlarni real hayotiy vaziyatlarga bog'lash orqali liderlik sifatlarini shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, o'qituvchining shaxsiy namunasining o'zi ham muhim pedagogik omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki liderlik ko'nikmalari ko'pincha kuzatish, tajriba orttirish va faol ishtirok orqali mustahkamlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Jahonda globallashuv jarayoni tezlashayotgan bir paytda san'at, madaniyat sohalarini rivojlantirish, asrab qolish, ularni takomillashtirish va o'qitish masalalari dolzarb bo'lib bormoqda. Bugungi kunga kelib madaniyat va san'at

ta'limiga doir turli interfaol usullar amaliyotda keng qo'llanilmoqda. San'atning asosini uning o'qitilishi bilan birga mazkur sohani boshqarish, bu boradagi ishlarni tashkil etish tizimi, ya'ni boshqaruvchilik qobiliyati tashkil qiladi. Rivojlangan xorijiy davlatlarning madaniyat va san'atni o'qitish bilan bir qatorda mazkur sohani tizimli rivojlantirish, boshqaruvchi kadrlarni tayyorlashning samarali metodlaridan unumli foydalaniladi. Dunyo tajribasida san'at va madaniyat sohasini boshqarishni rivojlantiruvchi mashg'ulotlar puxta o'rgatiladi. Darsliklarda keltirilgan bu boradagi metodik tavsiyalar ham ijtimoiy so'rovlar va tahlillarga asoslanadi. Ayni paytda san'at va madaniyat sohasidagi faoliyatni tashkil etish va rivojlantirish uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash o'qitish, o'rgatish bo'yicha ilg'or pedagogik texnologiyalar rivojlanmoqda.

Dunyoda ta'limi, pedagogikasi integrasion yondashuvga asoslangan bo'lib, bugun ta'lim menejmenti sohasi tobora rivojlanib bormoqda. Jumladan, san'at va madaniyat yo'nalishi talabalarini mazkur sohadagi ishlarni tashkil etishga o'rgatish, ularda jamoa bilan ishlash, o'z kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish malakalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu o'rinda madaniyat va san'at yo'nalishini o'qitishda talabalarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash dual yondashuv asosida amalga oshirish ijobiy samara berishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Respublikamizda ham san'at va madaniyat sohasini rivojlantirish, mazkur yo'nalishdagi faoliyatni samarali tashkil etish, boshqarish malakasini talabalarda hosil qilishda dual ta'lim tizimi, shuningdek, fanlarni o'qitishda integrativ yondashuv qo'llanilmoqda. Oliy ta'lim tizimida madaniyat va san'atni o'qitish metodikasini takomillashtirish, xususan, talabalarda liderlik ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda kasbiy kompetensiyani, tashkilotchilik ko'nikmasini rivojlantirish bilan birga ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kamol toptiradi. Zero, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1] – deb ta'kidlanishi san'at va madaniyat sohasini rivojlantirish bilan birga ularni samarali tashkil etish masalasi ham ta'lim oldiga mamlakatimiz yoshlarini o'z fikrini tafakkur mahsulini erkin bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo'yadi. Shu ma'noda oliy ta'lim tizimida talabalarning liderlik, tashkilotchilik ko'nikma hamda qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha mavjud metodik ta'minotini takomillashtirish zarurati mavjud.

Pedagogik nuqtai nazardan liderlik kompetensiyasini rivojlantirish quyidagi ichki ziddiyatlarga asoslanadi:

- nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi tafovut;
- talabalarda mavjud potensial imkoniyatlar bilan ularni amalga oshirishga yo'naltirilgan shart-sharoitlar o'rtasidagi nomutanosiblik;

- jamoaviy o'qish jarayonida yetakchilikni to'g'ri taqsimlashdagi muammolar;
 - shaxsiy mas'uliyat bilan jamoaviy mas'uliyatni uyg'unlashtirishdagi murakkablik.
- [2]

Mazkur muammolarni hal etishda integrativ yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim va kompetensiyaga asoslangan model asosiy metodologik yo'nalishlar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki integrativ ta'lim sharoitida fanlararo bog'liqlik, ijtimoiy tajriba va amaliyot uyg'unlashadi; talaba nazariy bilimni amaliy vaziyatlarda sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladi.

Talabalarda liderlik kompetensiyasini rivojlantirish quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi:

- ta'lim mazmunida liderlik bilan bog'liq ijtimoiy va psixologik bilimlarni singdirish;
- interfaol metodlar (trening, debat, rolli o'yin, loyihaviy ish) asosida o'qitish; o'zini-o'zi baholash, refleksiya va tahlil madaniyatini shakllantirish;
- jamoaviy faoliyatda yetakchilik vazifalarini almashtirib bajarish imkonini beruvchi o'quv muhiti yaratish. [3]

Shunday qilib, talabalarda liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish – bu nafaqat alohida pedagogik vazifa, balki shaxsning ijtimoiy va kasbiy shakllanishini ta'minlovchi murakkab, ko'p omilli pedagogik muammodir. Bu muammoni samarali hal etish ta'lim mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini yangilash, integrativ yondashuvni keng joriy etish bilan chambarchas bog'liqdir.

- Hozirgi globallashuv davrida ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – talabalarning kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlovchi liderlik kompetensiyalarini shakllantirishdir. Bu jarayonda integrativ yondashuv muhim metodologik asos sifatida e'tirof etilmoqda. [4]

Integratsiya jarayoni talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini bir butun tizimda uyg'unlashtirish, ularni amaliy faoliyatga tayyorlash, jamoada samarali ishlash, tashabbuskorlik va mas'uliyatlilikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Liderlik kompetensiyasi – bu shaxsning boshqalarni yetaklash, jamoani maqsad sari yo'naltirish, qaror qabul qilish va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etish qobiliyatini o'z ichiga oluvchi murakkab shaxsiy sifatlar tizimidir. Uni rivojlantirish uchun fanlararo, psixologik-pedagogik, kommunikativ va menejment yo'nalishlarini uyg'unlashtiruvchi integrativ pedagogik model zarur.

Integrativ yondashuvning pedagogik mohiyati. Integrativ yondashuv - ta'lim jarayonida turli fanlar, g'oyalar, usullar va qadriyatlarni o'zaro bog'lash orqali yagona maqsadga yo'naltirilgan ta'lim tizimini yaratish tamoyilidir. Bunda o'quvchi yoki talaba bilimlarni alohida emas, balki ularning o'zaro bog'liqligini anglab, hayotiy muammolarni kompleks tahlil qilishga o'rganadi.

Pedagogik integratsiyaning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- **Mazmuniy integratsiya** – turli fanlar mazmunini umumiy kompetensiyalar atrofida uyg'unlashtirish;
- **Metodik integratsiya** – o'qitish metodlari va texnologiyalarini bir tizimda qo'llash;
- **Faoliyat integratsiyasi** – nazariya va amaliyotni birlashtirish orqali faol o'rganish;
- **Shaxsiy integratsiya** – talabning intellektual, ijtimoiy, emotsional va axloqiy rivojlanishini bir butun sifatida ko'rish. [5]

Mazkur yondashuv liderlik kompetensiyalarini shakllantirishda ayniqsa muhimdir, chunki liderlikning o'zi turli soha bilimlari, kommunikativ ko'nikmalar, hissiy barqarorlik va jamoaviy muvofiqlikni talab etadi.

Liderlik kompetensiyasining mazmuni va tarkibiy tuzilmasi

Liderlik kompetensiyasi – bu talabning o'z faoliyati jarayonida tashabbus ko'rsatish, jamoa a'zolari bilan samarali muloqotda bo'lish, muammolarga innovatsion yechim topish va ijtimoiy mas'uliyatni his qilish qobiliyatlarini o'z ichiga olgan ko'p komponentli tizimdir.

U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. **Kognitiv komponent** – yetakchilik nazariyasi, boshqaruv psixologiyasi, kommunikatsiya asoslari bo'yicha bilimlar tizimi;
2. **Motivatsion komponent** – muvaffaqiyatga intilish, jamoa manfaati uchun faoliyat yuritish istagi;
3. **Kommunikativ komponent** – samarali muloqot, konfliktni boshqarish, jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalari;
4. **Amaliy komponent** – yetakchilik vazifalarini bajarish, loyihalarni boshqarish, tashabbus ko'rsatish malakalari;
5. **Refleksiv komponent** – o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan to'g'ri xulosa chiqarish qobiliyati.

Integrativ yondashuv asosida liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmi

Integrativ model asosida liderlik kompetensiyasini shakllantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: [6]

Bosqich	Mazmuni	Pedagogik vositalar
1. Motivatsion tayyorgarlik bosqichi	Talabada liderlikka qiziqish va ehtiyojni shakllantirish	Treninglar, interfaol suhbatlar, muvaffaqiyatli liderlar faoliyatini tahlil qilish
2. Bilim va tushunchalar integratsiyasi	Liderlik nazariyasi, kommunikatsiya, boshqaruv psixologiyasi fanlarini uyg'unlashtirish	Integrativ darslar, loyihaviy ta'lim, fanlararo seminarlar
3. Amaliy faoliyat bosqichi	Jamoaviy loyihalar orqali yetakchilikni sinovdan o'tkazish	"Team-work" topshiriqlari, debatlar, modellashtirish usullari
4. Refleksiya va baholash bosqichi	Talabning liderlik tajribasini tahlil qilish va takomillashtirish	O'zini baholash varaqalari, psixologik testlar, murabbiy fikri

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarda liderlik kompetensiyasini rivojlantirish tasodifiy jarayon emas, balki aniq pedagogik shart-sharoitlar va ilmiy asoslangan yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirilishi lozim bo'lgan murakkab tizimli faoliyatdir. Ayniqsa, madaniyat va san'at yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun liderlik nafaqat tashkilotchilik, balki ijodiy boshqaruv, jamoani ruhlantirish va estetik qadriyatlarni targ'ib qilish bilan ham chambarchas bog'liqdir. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, integrativ yondashuv talabalarda liderlik kompetensiyasini shakllantirishda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki mazkur yondashuv orqali fanlararo bog'liqlik ta'minlanadi, nazariy bilim va amaliy faoliyat o'rtasidagi uzilish bartaraf etiladi. Natijada talaba liderlikni faqat tushuncha sifatida emas, balki real faoliyat jarayonida namoyon etiladigan ko'nikma sifatida egallaydi.

Adabiyotlar tahlili asosida shuni aytish mumkinki, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli yetakchi o'rin egallamoqda. Bu model talabaning shaxsiy faolligini, mustaqil fikrlashini va mas'uliyatini kuchaytiradi. Xususan, interfaol metodlardan foydalanish – treninglar, rolli o'yinlar, loyihaviy ishlar va jamoaviy topshiriqlar – liderlik sifatlarini tabiiy ravishda yuzaga chiqaradi. Shuningdek, ichki ziddiyatlarning mavjudligi ham liderlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining tabiiy tarkibiy qismi ekanligi kuzatildi. Nazariy bilim bilan amaliy tajriba o'rtasidagi tafovut, shaxsiy va jamoaviy mas'uliyatni uyg'unlashtirishdagi murakkabliklar talabaning o'sish nuqtalarini belgilab beradi. To'g'ri tashkil etilgan pedagogik muhit ushbu ziddiyatlarni konstruktiv rivojlanish omiliga aylantirishi mumkin.

Muhokama davomida yana bir muhim jihat aniqlandi: o'qituvchining shaxsiy namunasi va pedagogik pozitsiyasi liderlik kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Talaba ko'pincha yetakchilikni nazariy ma'lumotdan ko'ra, real xatti-harakat, muloqot madaniyati va boshqaruv uslubini kuzatish orqali o'zlashtiradi. Shu sababli pedagogning o'zi ham liderlik kompetensiyalariga ega bo'lishi zarur. Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni tasdiqlaydiki, talabalarda liderlik kompetensiyasini rivojlantirish integrativ yondashuv, kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli hamda faoliyatga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar uyg'unligi asosida samarali amalga oshiriladi. Mazkur jarayon ta'lim mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini takomillashtirishni talab etadi hamda zamonaviy oliy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Natija. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarda liderlik kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi bevosita yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarga bog'liqdir. Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi va natijada liderlik ko'nikmalari tizimli ravishda shakllanadi. Aniqlanishicha, interfaol metodlardan foydalanish talabalarning tashabbuskorligini, mustaqil fikrlashini va jamoada ishlash

qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Trening, loyihaviy faoliyat, rolli o'yin va debatlar orqali talabalar o'z liderlik salohiyatini amaliy vaziyatlarda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularda qaror qabul qilish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va jamoani boshqarish malakalarining shakllanishiga olib keladi.

Shuningdek, reflektiv faoliyatni yo'lga qo'yish, ya'ni o'z-o'zini baholash va tahlil qilish mexanizmlarini joriy etish talabalarning shaxsiy o'sish dinamikasini ta'minlaydi. Natijada ular o'z kuchli va zaif tomonlarini anglab, liderlik sifatlarini ongli ravishda rivojlantirishga intiladilar. Tadqiqot jarayonida integrativ pedagogik model asosida bosqichma-bosqich tashkil etilgan ishlar talabalarning kognitiv, motivatsion, kommunikativ, amaliy va reflektiv komponentlari o'zaro uyg'un holda rivojlanishini ta'minlashi isbotlandi. Bu esa liderlik kompetensiyasining kompleks va barqaror shakllanishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, olingan natijalar talabalarda liderlik kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik jarayonni mazmunan boyitish, metodik jihatdan takomillashtirish va faoliyatga yo'naltirilgan ta'limni keng joriy etish zarurligini tasdiqlaydi. Mazkur yondashuv zamonaviy oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh, tashabbuskor va ijtimoiy faol mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, talabalarda liderlik kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy oliy ta'lim tizimining muhim va ustuvor vazifalaridan biridir. Globallashuv sharoitida jamiyatga nafaqat bilimli, balki tashabbuskor, mustaqil fikrlay oladigan, jamoani boshqara biladigan va mas'uliyatni o'z zimmasiga ola oladigan mutaxassislar zarur. Shu bois liderlik kompetensiyasini shakllantirish ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, liderlik kompetensiyasi ko'p komponentli tizim bo'lib, uning kognitiv, motivatsion, kommunikativ, amaliy va reflektiv jihatlari o'zaro uyg'unlikda rivojlantirilgandagina samarali natija beradi. Bu jarayonda integrativ yondashuv, kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli hamda interfaol pedagogik texnologiyalar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, ta'lim mazmunini boyitish, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish, jamoaviy faoliyatni to'g'ri tashkil etish hamda refleksiya jarayonini yo'lga qo'yish talabalarning liderlik salohiyatini yuzaga chiqarishda samarali omil ekanligi aniqlandi. O'qituvchining shaxsiy namunasi va pedagogik mahorati ham mazkur jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, talabalarda liderlik kompetensiyasini rivojlantirish – bu tizimli, maqsadli va uzluksiz pedagogik faoliyatni talab etadigan murakkab jarayon bo'lib, u ta'limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini yangilash bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan izchil ishlar kelajakda raqobatbardosh, ijtimoiy faol va yuqori kasbiy salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2016. –14-б.
2. Абдурахмонов М., Раҳмонов Н. Маданиятшунослик. Ўқув кўлланма, тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. –Тошкент: 2015.
3. Пугаченкова Г.А., Ремпел Л.И. История искусств Узбекистана. С древнейших времен до середины девятнадцатого века. –Москва: Искусство, 1965.
4. Тўраев Ф. Бухоро муғаннийлари. –Тошкент: Фан, 2009.
5. Шахермайр Ф. Александр Македонский. –Москва: Терра-Книжный клуб, 1999.
6. Европейский кредит тизими (ЕСПС). - Альмати-2003. — 150 С.

